




Alisher
Navoiy

Gʻazal gulzoridan 100 otashin gul



Uchinchi nashri


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(50‘)1

N – 14

Navoiy, Alisher

G‘azal gulzoridan 100 otashin gul: «G‘aroyib us-sig‘ar»-dagi 100 g‘azalning nasriy bayoni / A.Navoiy; mas‘ul muharrir V.Rahmonov; nasriy bayon muallifi A.Hojiahmedov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 208 b.

ISBN 978-9943-27-358-0

Qo‘lingizdagi kitobda mutafakkir shoir Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kitobidagi «G‘aroyib us-sig‘ar» devonidan o‘rin olgan dastlabki 100 g‘azalning nasriy bayoni o‘rin olgan. Garchi bu xil ifoda usuli bilan shoir qalamiga mansub badiiy durdonalarning g‘oyaviy-badiiy nafosatini aks ettirish imkoniyati bo‘lmasa ham, bu asar g‘azallar mazmunini chuqurroq anglab olishingizga ma‘lum darajada yordam beradi, deb umid qilamiz.

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(50‘)1

Nasriy bayon muallifi:

Anvar HOJIAHMEDOV,
filologiya fanlari doktori, professor

Mas‘ul muharrir:

Vahob RAHMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Omonillo MADAYEV,
O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-27-358-0

© Alisher Navoiy, «G‘azal gulzoridan 100 otashin gul». Uchinchi nashri. «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

MUQADDIMA

Mutafakkir shoirimiz, soʻz mamlakatining sultoni boʻlgan Alisher Navoiyning adabiy merosi, ilmiy, tarixiy-maʼrifiy asarlari jahon adabiyotining nodir durdonalaridandir. Barcha turkiy xalqlarning iftixori boʻlgan bu ulugʻ Insonning bebaho merosini bilish, oʻzligimizni anglash va jamiyatimizga munosib bilim, tafakkur hamda yuksak madaniyat sohiblari boʻlib yetishishda keng foydalanish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Hazrat Navoiy yaratgan bezavol obidalarning mazmun va mohiyatini, gʻoyaviy teranligi va badiiy nafosatini tushunib yetish uchun kitobxondan idrok, mehnat va sabot talab qilinadi. Bu sohada oʻquvchilar ommasiga qulaylik yaratish uchun talay ishlar amalga oshirildi. Navoiy asarlari uchun qator lugʻatlar, «Xamsa» dostonlari, baʼzi ilmiy va maʼrifiy asarlarining nasriy bayonlari yaratildi. Ular shoir ijodining salohiyati, xalq ommasini tarbiyalashdagi ahamiyatini chuqurroq oʻzlashtirishga xizmat qilmoqda.

Qoʻlingizdagi kitob buyuk Navoiy lirik merosini oʻrganishingizga yordam koʻrsatish maqsadini koʻzlaydi. Unda shoirning «Xazoyin ul-maoniy» kitobidagi birinchi devon – «Gʻaroyib us-sigʻar»dagi dastlabki 100 gʻazalning nasriy bayoni oʻrin olgan. Tajriba tarzidagi ushbu asar gʻazallardagi har qaysi bayt mazmuni, uni ifodalashda qoʻllangan uslublar, rang-barang sheʼriy sanʼatlar, xilma-xil vaznlar, qofiyalardan, tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini anglab yetishingizga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Kitobda kamchiliklar ham uchrashi tabiiy. Zero, Navoiyning sanʼatkorlik salohiyatini nasriy bayon etish muammoli masaladir. Maqsadimiz esa lugʻatlar oʻrnini bosadigan oʻziga xos qoʻllanma yaratish. Agar kitob oʻquvchilar tomonidan maʼqul topilsa, shoir gʻazallari nasriy bayonini yana davom ettirish, natijada 2600 gʻazalning shu xil ifodasiga erishish mumkin, deb oʻylaymiz. Bu vazifani bajarishda barcha navoiyshunos olimlar ishtirok etadilar, deb umid qilamiz.

G'AROYIB US-SIG'AR

G'AZALLAR

1

Ashraquat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo,
«Yor aksin mayda ko'r» deb, jomdin chiqti sado.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,
Jom o'lur getinamo Jamshid, ani ichkan gado.

Jomu may gar buyladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar
Chehrai maqsudi mahv o'lg'ay hamul dam moado.

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin
«Ishrabu, yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

Jom quyoshidan hidoyat nurlari taralmoqda.
«Yor aksini mayda ko'r» deb jomdan sado chiqdi.

Ey soqiy, ko'ngul jomida raqib aksi tufayli g'am zangi paydo bo'lsa, vahdat mayidek bu g'amdan xalos qiluvchi narsa topilmaydi.

U mayni singan bir safolga quyib ichilsa, jom jahonnamoga, uni ichgan gado esa Jamshidga aylanishi aniq.

Jom bilan may shunday bo'lsa, u jom uchun har damda yuz jahonni bag'ishlab, u may uchun ming jonni fido qilsang arziydi.

Ey, may tashuvchi bola, dayr ichida hush ahlini rasvo qilmoq maqsadida may jomi tutsang, uni men devonadan boshlay qol.

Toki o'sha maydan ko'ngul jomida mahbuba chehrasi jilva topsa, o'sha ondayoq Allohdan boshqa hamma narsa mahv bo'lgusidir.

Jom ichidagi may bilan vahdat muyassar bo'ladi. Inson jom-u may so'zlarini bir so'z bilan ifoda etadi.

Ey zohid, sen gumon qilganingdan ham o'zgacharoq jom-u may mavjuddir. Bilmay turib bu mayxona ahlini inkor etma, qoralama.

Ey Navoiy, sen tashnalab bo'lma, chunki har dam azal soqiysidan «Ichinglar, ey tashnalar!» degan xitob keladi.

2

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.

Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig' osonkim,
Erur paydolg'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding,
Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Ne ishga bo'ldi beorom ko'zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko'zgusida aksini gar ko'rguzmadi Laylo?

Quyoshqa gah qizarmoq, gohi sarg'armoq erur andin
Ki, sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.

Nedin yuz gul ochar ishq o'tidin bulbul kabi Bomiq
Yuzingdin gar uzori bog'ida gul ochmadi Uzro.

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,
Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro?

Jamoling partavidin sham o'ti gar guliston ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso?

Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya'ni
Ki, mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.

Qanoatning dalilin inzivo qilding, yana bir ham
Dalil ushbuki, qoni harfidin xalq aylading anqo.

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.

* * *

Husning ko'rinishidan har qaysi inson boshiga bir tashvish tushib, ular bilan ikki olam bozorida yuz g'avgo paydo bo'lgan.

Seni topish juda qiyin, lekin topmaslik oson, chunki paydolinging yashirin-u, pinhonliging paydodir.

Chaman o'txonasiga olovrang guldand shunday o't soldingki, bu o'tdan shaydo bulbul samandardek kulga botdi.

Layli yuzi ko'zgusida aksini ko'rgizmagan bo'lsa, nega Majnun ko'zgu aksidek beorom bo'ldi?!

Quyosh goh qizorib, goh sarg'aydi, buning sababi shuki, qudrating bog'ida unga o'xshagan yuz ming ra'no guli bordir.

Uzro yuzi bog'ida sening yuzingdan gul ochmagan bo'lsa, nega Bomiq bulbulga o'xshab ishq o'tidan yuz gul ochadi?

So'zlaringni Shirin labiga yashirmagan bo'lsang, nega Farhodning qon yoshlaridan toshlar yoqutga aylanadi?

Jamoling nuridan sham o'ti gulistonga aylanmagan bo'lsa, nega parvona Xalilga o'xshab o'zini o'tga soladi?

Qaddi sarvga o'xshash go'zallar qomatini go'zal qilib yaratdingki, bu chiroy bilan alifni zebo aylading.

Tanholikni qanoatning dalili qilding, yana bir dalil shuki, «qoni» so'zi harflaridan anqoni yaratding.

Tikan jannat guli vasfini qilishda soqov bo'lgani kabi, Navoiy qaysi til bilan sening maqtovingni ayta olardi?!

3

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro.

Zarrot aro har zarraki bor, zikringa zokir,
Amtor aro har qatraki, bor, hamdinga go'yo.

Mashshotayi sun'ungdurur ulkim, nafas ichra
Kun ko'zgin aqshom kulidin qildi mujallo.

Kun shakli yuzing sajdasing bo'ldi mushakkal,
Tun turrasi qahring yelidin bo'ldi mutarro.

Sun'ung qilibon subhni ul nav' musha'bid
Kim, mehr o'tin og'zidin etar har nafas ifsho.

Go'yoki kuyar og'zi ul o't hirqatidinkim,
Anjumdin o'lur obilalar girdida paydo.

Muhtoj sening dargahinga xusrav-u darvesh,
Parvarda sening ne'matinga johil-u dono.

Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham' o'tida parvona sening husnunga shaydo.

Ushshoq aro, yo rabki, Navoiyg'a maqome
Bergilki, sening hamdinga bo'lsun tili go'yo.

* * *

Yuzing sahifasi taqdir xati bilan yozilgandir. Husning debochasida¹ abadiylik nuqtasi tugʻrodir².

Zarralar toʻplami ichidagi har bir zarra sening nomingni takrorlaydi, yomgʻirlarning har bir qatrasini madhingni aytadi.

Husning bezakchisi bir nafasda kun koʻzqusini oqshom kulidan tozalab jilo beradi.

Kun shakli yuzingga sajda qilib shakllandi. Tun kokili qahring shamolidan tiniqlashdi.

Qudrating tongni har nafasda quyosh oʻtini ogʻzidan sochuvchi nayrangbozga aylantirdi.

Ogʻzi u oʻtning alangasidan kuygan kabi yulduzdan uning atrofida qabarchiqlar paydo boʻldi.

Sening dargohingga podsho ham, darvesh ham muhtoj, sening neʼmatlaringga johil ham, dono ham shukrona aytadi.

Bulbul gul yuzida sening sirlaringga notiq, parvona sham oʻtida sening husningga shaydodir.

Yo Rab, oshiqlar ichidan Navoiyga ham oʻrin bergilki, tili sening maqtovingga goʻyo boʻlsin.

¹ Debocha – kitobning oltin suvi va naqshlar bilan bezatilgan birinchi sahifalari yoki devonga yozilgan nafis muqaddima, bosh soʻz.

² Tugʻro – podsho farmonlari yozilgan qogʻoz tepasiga tushiriladigan maxsus bezakli belgi yoki maktublar tepasiga yoziladigan maxsus soʻz.

4

Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.

Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Etmak mahol aql-u farosat bilan sanga.

Chun koinot zubbasi ojiz ko'rub o'zin,
Hamd ayta olmas oncha balog'at bilan sanga.

Izhoru ajz bizdin adab tarkidur, base,
Yuz ming qusur-u nuqs-u kasofat bilan sanga.

Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib
Sendin, yetib charog'i hidoyat bilan sanga.

Lutfung rafiqim o'lmasa ne hadki yetkamen,
Boshdin ayog' gunoh-u zalolat bilan sanga.

Lutf aylagilki mumkin emas qilmasang qabul,
Etmak tamomi umr ibodat bilan sanga.

Chun sendin o'zga yo'q panahim qochmayin netay,
Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bilan sanga.

Isyoni ko'p Navoiyning-u yo'q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/1586> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1586> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1586>